

УДК: 9(575.1)

YOSHLAR TA'LIM-TARBIYASI DOLZARB MASALA

Topildiyev Odiljon Raximjonovich

Namangan davlat pedagogika instituti

tarix fanlari nomzodi, dotsent

rodilbek@mail.ru

+998973767511

ORCID: [0009-0009-7453-5087](https://orcid.org/0009-0009-7453-5087)

Annotatsiya: Maqolada yoshlarni tarbiyalashda oila, mahalla, ta'lim muassasalari – haqiqiy ma'naviy tarbiya omili ekanligi, yoshlarni ta'lim-tarbiyasiga qaratilgan ta'sirlarni o'rganishda tizimli yondashuv yo'nalishlari asosida ularni qiziqtirgan masalalar, hayotiy istaklar, bandlik va bo'sh vaqtni to'g'ri tashkil etish kabi masalalar taxlil etilgan. Shuningdek, maqola natijalari sifatida mamlakatda yoshlar ta'lim-tarbiyasi yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil va qat'iylik bilan davom ettirish ijtimoiy, siyosiy, demokratik jarayonlarga alohida e'tibor qaratilayotgani taxlil qilingan. 1991-2025 yillar davomida O'zbekistonda milliy davlatchilikni rivojlantirish, yangi iqtisodiy munosabatlar hamda huquqiy tizimning shakllanishida, yoshlar taraqqiyotning hal qiluvchi kuchiga aylangani, yoshlar faoliyati bilan bog'liq ma'naviy, ma'rifiy-mafkuraviy ishlarni yanada jonlantirish va bu sohadagi barcha ishlarni muvofiqlashtirish, mahallalarda yoshlarga ibrat bo'ladigan urf-odat, an'analarni keng targ'ib etish metodlari berilgan takliflar va xulosalada keng taxlil qilingan.

Kalit so'zlar: Yoshlar, ma'naviy tarbiya, oila, mahalla, ta'lim muassasalari, tarbiya, yoshlar tarbiyasiga qaratilgan ta'sirlar, yoshlar bandligi, yoshlar bo'sh vaqti.

АКТУАЛЬНЫЙ ВОПРОС ОБРАЗОВАНИЕ И ВОСПИТАНИЯ МОЛОДЕЖИ

Аннотация: В статье анализируется тот факт, что семья, соседство, образовательные учреждения являются реальным духовно-воспитательным фактором в воспитании молодежи, интересующих ее вопросах, жизненных стремлениях, правильной организации занятий и свободного времени, на основе направлений системного подхода к изучению влияния на образование и воспитание молодежи. Также в результате статьи было проанализировано, что реформы, реализуемые в стране в сфере образования молодежи, последовательно и строго продолжаются, при этом особое внимание уделяется социальным, политическим и демократическим процессам. За 1991-2025 годы в выводах подробно проанализированы развитие национальной государственности в Узбекистане, формирование новых экономических отношений и правовой системы, то, что молодежь стала решающей силой развития, дальнейшая активизация духовно-просветительской и идеологической работы, связанной с молодежной деятельностью и координация всей

работы в этой области, методы широкой пропаганды обычаев и традиций в районах, которые являются примером для молодежи.

Ключевые слова: Молодежь, духовное воспитание, семья, соседство, образовательные учреждения, образование, влияние на образование молодежи, трудоустройство молодежи, свободное время молодежи.

CURRENT ISSUE OF EDUCATION AND YOUTH

Abstract: The article analyzes the fact that family, neighborhood, educational institutions are a real spiritual and educational factor in the education of young people, issues of interest to them, life aspirations, proper organization of classes and free time, based on the directions of the systemic approach to the study of the impact on the education and upbringing of young people. Also, as a result of the article, it was analyzed that the reforms implemented in the country in the field of youth education are consistently and strictly continued, with special attention being paid to social, political and democratic processes. For 1991-2025, the conclusions analyze in detail the development of national statehood in Uzbekistan, the formation of new economic relations and the legal system, the fact that young people have become a decisive force in development, further intensification of spiritual, educational and ideological work related to youth activities and coordination of all work in this area, methods of widespread propaganda of customs and traditions in areas that are an example for young people.

Key words: Youth, spiritual education, family, neighborhood, educational institutions, education, influence on youth education, youth employment, youth free time.

KIRISH

O'zbekistonda mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab yoshlar ta'lim-tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilib davlat siyosati darajasiga ko'tarildi, jismonan sog'lom va ma'nan yetuk barkamol avlodni tarbiyalash ustuvor vazifa etib belgilandi. O'tgan yillar davomida Sog'lom avlod, Ona va bola, Yoshlar, Barkamol avlod, Oila, Obod turmush, Yoshlarni qo'llab quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash, Insonga e'tibor va sifatli ta'lim, Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili kabi nomlar bilan atalgan Davlat dasturlarining amalga oshirilishi, yoshlarga oid olb borilgan islohotlarni rivojlanishini ta'minlab berdi. Darxaqiqat, yoshlar jamiyat ijtimoiy taraqqiyotini harakatga keltirishda muhim kuch bo'lish bilan birga, ular jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy yangilanishining muhim sub'yektlaridan bo'lib, ijtimoiy hayotda ro'y berayotgan rivojlanish va o'zgarishlarga o'zlarining ijobiy yoki salbiy ta'sirlarini o'tkazmoqdalar.

O'zbekistonning porloq kelajagi qanday bo'lishi yoshlarning ma'naviy-mafkuraviy dunyoqarashiga, ijtimoiy, siyosiy, demokratik jarayonlardagi faolligiga bog'liqdir.

Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoevning quyidagi "Har qanday jamiyat taraqqiyotida uning kelajagini ta'minlaydigan yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishi hal qiluvchi o'rin tutadi. Yoshlar oldiga katta marralarni qo'yib, ularga erishishlari uchun keng imkoniyatlar yaratish va har tomonlama ko'mak berish barcha uchun eng ustuvor vazifa bo'lishi zarur" – degan so'zlarini ta'kidlash muhim ahamiyatga ega. Ma'lumki, yosh avlod ta'lim-tarbiyasi barcha zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan bugungi kunda yoshlar masalasi nihoyatda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Yoshlar ta'lim-tarbiyasi yo'lida amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil va qat'iylik bilan davom ettirish ijtimoiy, siyosiy, demokratik jarayonlarga alohida e'tibor qaratishni taqozo etmoqda. 1991-2025 yillar davomida O'zbekistonda milliy davlatchilikni rivojlantirish, yangi iqtisodiy munosabatlar hamda huquqiy tizimning shakllanishida, yoshlar taraqqiyotning hal qiluvchi kuchiga aylandi.

Bugungi kunda aholining asosiy qismini tashkil etadigan yoshlarning hali to'la yechilmagan muammolariga e'tiborni jalb etish, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash faqat davlat organlari, ta'lim muassasalarinigina emas, balki keng jamoatchilikning ishtirokini ham talab qiladi. Ushbu muhim strategik vazifani hal qilish oila, mahalla, ta'lim muassasalari va fuqarolik jamiyati institutlarining birgalikda samarali faoliyat olib borishini talab etadi. Yosh avlod ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanadigan insonlar, ya'ni oilada – ota-onalar, mahallada – qo'ni-qo'shni va keng jamoatchilik, ta'lim muassasasida – o'qituvchi va murabbiylar kelajak avlod barkamolligi yo'lida yoshlarning buyuk ajdodlarimizga munosib bo'lishlari uchun mas'uldirlar. Shu ma'noda, oila, mahalla, ta'lim muassasalari – haqiqiy ma'naviy tarbiya omili muhiti bo'lib, milliy tarbiyaga xos ilk tushunchalar kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, odamiylik, mehr-oqibat, o'z Vataniga, xalqiga sadoqatli bo'lish kabi olijanob fazilatlar aynan oila, mahalla va ta'lim muassasalari muhitida shakllanadi.

Yoshlarda bolalikdan boshlab ta'lim-tarbiyasiga, e'tiqodiga, yuksak ma'naviy dunyoqarashni shakllantishga harakat qilsak, ular ma'rifatli, mustaqil fikrli, barkamol inson bo'lib voyaga yetishadi. Chunki yoshlar jamiyatning shunday ijtimoiy guruhiga mansubki, ular o'tkir hissiy bilish qobiliyatiga ega bo'lib, so'z bilan amaliyotning nomutanosibligi holatlarini kuchliroq sezaдилar. Kattalar uchun odatiy bo'lgan ayrim holatlar yoshlarning hali to'liq shakllanmagan ongiga, dunyoqarashiga kuchli ta'sir qilishi mumkin. Shuning uchun yoshlarning oldida haqiqatni aytishdan cho'chimaslik, soxtakorlikdan qochish, mavjud muammolarni ochiq-oydin bayon etish lozim. Lekin ayrim ota-onalar farzandi tarbiyasini ta'lim muassasalari yoki jamiyat zimmasiga ag'darib qo'yib, o'g'li-qizi taqdiri bilan qiziqmay, "Peshonasida borini ko'radi" deb loqaydlik qilishmoqda.

Shuningdek, bugungi kunda yoshlarning xulq – atvoriga, ma'naviy tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillar asosan quyidagilarda nomoyon bo'lmoqda:

- internet orqali kirib kelayotgan turli xayosiz, pornografik mazmundagi axborot vositalari (ijtimoiy tarmoqlardagi filmlar, kliplar, qo'l telefonlaridagi rasmlar va hokozolar) yoshlarga ma'naviy tahdidlarni olib kelmoqda;
- yoshlar orasida "ommaviy madaniyat"ga qiziqishning ortishi va internetdan tarqatilayotgan noto'g'ri axborotlar;
- nosog'lom turmush tarzining yoshlar orasida (ichkilikbozlik, kashandalik, narkomaniya va boshqalar) ko'payishi;
- zo'ravonlikka asoslangan kompyuter o'yinlari;
- ota-onalarda tarbiyaviy saviyaning pastligi;
- yoshlarning nazoratsizligi va qarovsizligi (ijtimoiy yetimlik);
- ta'limga bo'lgan qiziqishning pastligi;
- farzandni ota-ona tomonidan haddan tashqari erkalatish;
- moddiy muammolar tufayli kelib chiqadigan ziddiyatlar;
- farzandidagi o'zgarishlarni sezmaslik, befarqlik va loqaydlik;
- yoshlarning bo'sh vaqtlarini besamara o'tishi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, yoshlarning ma'nan yetuk, jismonan sog'lom bo'lib voyaga yetishi uchun avvalo ularga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillarni bartaraf etish lozimdir. Bu esa, o'z navbatida, oila, mahalla, ta'lim muassasalari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, davlat va nodavlat tashkilotlari, umuman har bir fuqarodan mas'uliyat, fidoiylilikni talab etadi. Shu jihatdan olganda, oila, mahalla va ta'lim muassasalarining asosiy vazifasi jamiyat talabiga mos barkamol yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishdir. Ushbu vazifani amalga oshirish uchun yoshlarning vatanparvarligi oiladagi ta'lim-tarbiyasi, mahalla va ta'lim muassasalaridagi ma'naviy muhit bilan bog'liqdir. Chunki, o'z oilasi, mahallasi va ta'lim muassasasini qadrlamagan inson Vatanini ham qadrlashi qiyin kechadi. Oila, mahalla va ta'lim muassasasi muhiti yoshlar ma'naviyatini shakllantiruvchi omil sifatida yetakchi o'rinda turadi. Bugungi kunda ta'lim-tarbiyaning barcha yo'nalishlarining yaxlitligini talab etadigan tarbiyaviy ishlarga kompleks, tizimli yondashuvni ta'minlash nihoyatda dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda.

Yoshlar tarbiyasiga qaratilgan ta'sirlarni o'rganishga kompleks tizimli yondashuv yo'nalishlarini quyidagilarda ko'rish mumkin:

1. Tarbiya turlari – badan tarbiyasi, axloq tarbiyasi, mehnat tarbiyasi, ma'naviy tarbiya.
2. Tarbiya usullari – individual usul, jamoaviy usul, ommaviy usul.
3. Tarbiya vositalari – fan, ta'lim, madaniyat, adabiyot, san'at, matbuot, radio, televideniye, teatr, kino, axborot texnologiyalari, internet asosdagi ijtimoiy tarmoqlar.
4. Tarbiya omillari – oila, mahalla, ta'lim muassasalari, ijtimoiy institutlar.
5. Tarbiya jarayoni – o'qishgacha bo'lgan vaqt, o'qish vaqti, ish vaqti, ishdan keyingi bo'sh vaqt.

Demak, yoshlar ma'naviy ta'lim-tarbiyasiga qaratilgan ta'sirlarni o'rganishda tizimli yondashuv yo'nalishlari asosida ularni qiziqtirgan masalalar, hayotiy istaklar, ish bilan bandlik va bo'sh vaqtni to'g'ri tashkil etish kabi masalalarni hal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, o'z navbatida, yoshlarni ma'naviy tarbiyalash

samaradorligini oshirishda oila, mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligini rivojlantirishga alohida e'tibor berish lozimligini ko'rsatmoqda.

Bu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev "Yangi O'zbekiston – maktab ostonasidan, ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi", degan g'oya asosida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish kerakligini ta'kidladi.

Buning natijasida birinchidan, yosh avlodga bog'cha, maktab va oliygohda sifatli ta'lim-tarbiya berishni yo'lga qo'yish, ular jismoniy va ma'naviy sog'lom, vatanparvar insonlar bo'lib ulg'ayishi uchun barcha kuch va imkoniyatlarni safarbar etish;

Ikkinchidan, yoshlarni zamonaviy bilim va tajribalar, milliy va umumbashariy qadriyatlar asosida mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, ezgu fazilatlar egasi bo'lgan insonlar etib voyaga yetkazish;

Uchinchidan, yoshlarni mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlariga o'rgatish, ularda tadbirkorlik ko'nikmalari va mehnatsevarlik fazilatlarini shakllantirish hamda tashabbuslarini ro'yobga chiqarish, ish hamda uy-joy bilan ta'minlashga ustuvor ahamiyat qaratish.

Demak, bola tug'ilganidan boshlab, 30 yoshgacha bo'lgan davrda uni har tomonlama qo'llab-quvvatlaydigan, hayotda munosib o'rin topishi uchun ko'mak beradigan yaxlit va uzluksiz tizim yaratish belgilab berildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda yoshlarning kelajakdagi taqdiri va istiqboli xaqida o'ylab, bugungi globallashuv davrida yosh barkamol avlodni ma'naviy tarbiyalash samaradorligini oshirish uchun quyidagi takliflarni berish maqsadga muvofiq bo'ladi:

1. Yoshlarga oid faoliyat bilan shug'ullanadigan davlat va nodavlat tashkilotlar, ijtimoiy harakatlar faoliyatini takomillashtirish, ular imkoniyatlaridan to'la foydalanish.
2. Yoshlar faoliyati bilan bog'liq ma'naviy, ma'rifiy-mafkuraviy ishlarni yanada jonlantirish va bu sohadagi barcha ishlarni muvofiqlashtirish, mahallalarda yoshlarga ibrat bo'ladigan urf-odat, an'analarni keng targ'ib etish maqsadida televideniye, radio, ommaviy axborot vositalari orqali muntazam chiqishlar qilish, tadbirlar tashkil etish.

3. Barcha ta'lim muassasalarida bevosita ma'naviyat masalalari bilan shug'ullanadigan mutaxassislar faoliyatini yanada kuchaytirish hamda ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy, tarbiyaviy ishlarning milliy asoslarini rivojlantirib har oyda yoki uch oyda bir marta "ota-onalar kuni"ni tashkil etish. Shuningdek, yoshlar nazoratini amalga oshirishda oila, mahalla, ta'lim muassasalari hamkorligini yanada keng yo'lga qo'yish uchun ularda "ochiq muloqot kuni"ni belgilash. Ta'lim muassasalariga surunkali kelmaydigan o'quvchi-yoshlarni ta'lim muassasalari, mahalla faollari hamda hamkorlik kengashi yordamida o'qishga jalb etish, tarbiyasi og'ir yoshlar, farzandlari tarbiyasiga bee'tibor ota-onalar bilan doimiy individual ishlash, ularga maslahatlar berib borishni tizimli tashkil etish.
4. Yoshlar turmush tarzi, ruhiyati va qiziqishlarini davomli o'rganadigan psixologik markazlarni tashkil etish va ular ishini maxsus reja, dastur asosida olib borish.
5. Yoshlar ishtirokida "ommaviy madaniyat"ni targ'ib qiluvchi kinofilmlar, multfilmlar, videoroliklar, qo'shiqlar, rasmlarni tarbiyaviy ahamiyatini tanqidiy tahlil etish va yoshlarda mafkuraviy immunitet, axborot iste'moli madaniyatini rivojlantirish.
6. Yoshlar orasida milliy qadriyatlarni targ'ib qilish jarayonida ularning yosh davrlari xususiyatini hisobga olish hamda mehnatsevarlik, intizom, mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish.
7. Yoshlarning bo'sh vaqtlarini samarali tashkil etish uchun shart-sharoit yaratish, foydali mashg'ulotlarga, turli ilmiy, madaniy-ma'naviy, sport to'garaklariga keng jalb qilish.
8. Yoshlarda sog'lom turmush tarzi tamoyillarini mustahkamlash uchun ularni ichkilikbozlik, kashandalik, narkomaniya, ma'naviyatsizlik, ommaviy madaniyat tahdidilaridan saqlash maqsadida mahallalarda, ta'lim muassasalarida doimiy ravishda yoshlar o'rtasida terrorizm, diniy aqidaparastlik, missionerlik kabi salbiy holatlarning havfini davra suhbatlari va uchrashuvlarda muntazam tushintirib borish.
9. Yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash borasida mahallalarda targ'ibot-tashviqot ishlarini tizimli va manzilli tashkil etish. Ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni, yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash va ularda tibbiy savodxonlikni oshirish.

10. Ota-onalarning barkamol yosh avlodni tarbiyalash bo'yicha huquqiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik – pedagogik va fiziologik bilimlarini oshirishga qaratilgan tadbirlar, seminar – treninglarni mahalla, ta'lim muassasalari hamkorligida o'tkazish hamda kerakli maslahatlar berish.
11. Oilada, mahallada yoshlardagi ijtimoiy faollik, o'z ustida mustaqil ishlash, yangilikka intilish, tashabbuskorlikni qo'llab-quvvatlash va yoshlar tadbirkorligiga yanada keng imkoniyatlar yaratish.
12. Mahallalardagi uyushmagan yoshlar bilan ishlashda fuqarolarni o'zini-o'zi boshqarish organlari tizimida yettilik faoliyatini yanada rivojlantirish.
13. Sog'lom avlodni tarbiyalash uchun oilada bolalikdan boshlab ekologik tarbiyani shakllantirish, ularda atrof-muhit, ekologiyaga ongli munosabatni rivojlantirishga qaratilgan tarbiyaviy tadbirlarni mahalla va ta'lim muassasalari hamkorligida doimiy o'tkazish, bola tarbiyasi namunali yo'lga qo'yilgan oilalar tajribasini o'rganish hamda ommalashtirish lozim.

XULOSA

Xulosa qilinadigan bo'lsa, xilma-xil usullarda olib borilayotgan ta'lim-tarbiya ishlari jismonan sog'lom, ma'naviy barkamol yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazishda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Zero, yangi ming yillikda davlatlarning, xalqlarning taqdirini moddiy boylik emas, balki intellektual salohiyati yetuk va yuksak ma'naviyatli yoshlar hal qiladi. Shuning uchun ham bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsad sari odimlayotgan ekanmiz, buning uchun Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Navoiy, Bobur kabi mutafakkirlarni tarbiyalab beradigan, ta'lim va tarbiya jarayonini rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va zamonaviy innovatsiyalarni taraqqiy ettirish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2025 yil 14 fevral kuni yoshlar bilan videoselektor shaklida o'tgan uchrashuvi // Xalq so'zi, 2025 yil 15 fevral.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasi // Xalq so'zi, 2020 yil 29 dekabr.